

ETIKET LEKSIKASINI QIYOSIY-TIPOLOGIK TADQIQ ETISH ASOSLARI

Sapashev Ardasher

Oriental universiteti Lingvistika (arab tili) mutaxassisligi magistranti

Ilmiy rahbar: *Oriental universiteti Tillar-1 kafedrası*

dotsenti, PhD G.Rahmatova

Annotatsiya. *Mazkur maqolada etiket leksikasining qiyosiy-tipologik tadqiq etish asoslari yoritiladi. Turli tillardagi etiket birliklarining lingvistik, madaniy va pragmatik xususiyatlari tahlil qilinib, ularning o'xshash va farqli jihatlari aniqlanadi. Tadqiqotda etiket leksikasining shakllanishi, qo'llanish doirasi hamda milliy-madaniy omillar bilan bog'liqligi qiyosiy-tipologik yondashuv asosida o'rganiladi. Shuningdek, nutq odobi birliklarining kommunikativ vazifalari va tillararo munosabatlardagi ahamiyati ochib beriladi.*

Kalit so'zlar: *etiket leksikasi, nutq etiketi, qiyosiy-tipologik tahlil, lingvokulturologiya, pragmatika, kommunikativ kompetensiya, nutq odobi, milliy-madaniy xususiyatlar, tillararo qiyoslash, muloqot madaniyati.*

Etiket leksikasini qiyosiy-tipologik jihatdan tadqiq etish zamonaviy tilshunoslikning interdisiplinar yo'nalishlaridan biri bo'lib, u qiyosiy tilshunoslik, tipologiya, sotsiolingvistika, pragmatik lingvistika hamda lingvokulturologiya kesishmasida shakllangan nazariy qarashlarga tayanadi. Mazkur yondashuv til birliklarini faqat struktur jihatdan emas, balki ularning funksional, kommunikativ va madaniy tabiatini ham hisobga olgan holda tahlil qilish imkonini beradi.

Qiyosiy tilshunoslik doirasida etiket leksikasini o'rganish turli tillardagi muayyan leksik-semantik guruhlarining o'xshash va farqli xususiyatlarini aniqlashga qaratiladi. Bu yondashuv tillar o'rtasidagi universallik va o'ziga xoslik nisbatini belgilashda muhim o'rin tutadi. Xususan, *salomlashish, xayrlashish, minnatdorchilik bildirish* va *uzr so'rash* kabi etiket birliklari ko'plab tillarda mavjud bo'lib, ular umumiy kommunikativ ehtiyojlardan kelib chiqqan universal hodisa sifatida qaraladi.

Tipologik yondashuv esa etiket leksikasini tizimli hodisa sifatida ko'rib chiqib, uni funksional-semantik kategoriyalar asosida tasniflashga imkon beradi. Ushbu yondashuvga ko'ra, etiket birliklari kontakt o'rnatish, kontakti saqlash, kontakti yakunlash hamda ijtimoiy baholash kabi funksional guruhlariga ajratiladi. Bunday tasnif turli tillarda etiket birliklarining struktur va semantik modelini aniqlashda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Sotsiolingvistik nazariya etiket leksikasini jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar tizimi bilan uzviy bog'liq holda talqin etadi. Ushbu yondashuvga ko'ra, etiket birliklari ijtimoiy maqom, yosh, jins, ijtimoiy masofa va kommunikativ vaziyatga bog'liq ravishda tanlanadi.

Shu sababli etiket leksikasi ijtimoiy ierarxiyani til orqali ifodalovchi vosita sifatida qaraladi.

Pragmalingvistika etiket birliklarini nutqiy aktlar nazariyasi doirasida tahlil qilib, ularning kommunikativ funksiyasini asosiy tadqiq obyekti sifatida belgilaydi. Etiket leksikasi ko'pincha muloqotni boshlash, davom ettirish yoki yakunlash, shuningdek, ijtimoiy munosabatlarni muvozanatda saqlash vazifasini bajaradi. Bu jihatdan etiket birliklari bevosita axborot uzatishdan ko'ra ko'proq kommunikativ munosabatni tartibga soluvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Lingvokulturologik yondashuv etiket leksikasini madaniy kod sifatida talqin etadi. Har bir etiket formulasi muayyan millatning tarixiy tajribasi, diniy qarashlari va madaniy qadriyatlarini aks ettiradi. Shu bois turli tillardagi etiket birliklarini qiyoslash orqali ularning ortida turgan madaniy model va tafakkur tizimini aniqlash mumkin bo'ladi.

Arab va o'zbek tillari materiallari asosida etiket leksikasini qiyosiy-tipologik tadqiq etish shuni ko'rsatadiki, ushbu tillarda etiket birliklari bir tomondan universal kommunikativ ehtiyojlarga asoslangan umumiy tizimni tashkil etsa, ikkinchi tomondan milliy-madaniy va tarixiy omillar ta'sirida shakllangan o'ziga xos tizim sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli etiket leksikasini o'rganishda yuqorida qayd etilgan nazariy yondashuvlarning integratsiyasi zarur hisoblanadi.

Natijada, etiket leksikasini qiyosiy-tipologik tadqiq etishning nazariy asoslari sifatida qiyosiy tilshunoslikning universalizm tamoyillari, tipologik tasniflash prinsiplari, sotsiolingvistik ijtimoiy determinatsiya g'oyasi, pragmalingvistik nutqiy aktlar nazariyasi hamda lingvokulturologik madaniy kod konsepsiyasi birgalikda kompleks metodologik tizimni tashkil etadi.

Etiket leksikasi til lug'at tarkibining muhim qismlaridan biri bo'lib, kishilar o'rtasidagi muomala jarayonida qo'llaniladigan odob-axloq me'yorlarini ifodalovchi til birliklarini o'z ichiga oladi. Bunday birliklar salomlashish, xayrlashish, minnatdorchilik bildirish, uzr so'rash, tabriklash va murojaat qilish kabi nutqiy vaziyatlarda faol qo'llanadi²⁴.

Etiket leksikasini qiyosiy-tipologik jihatdan o'rganish turli tillardagi muomala madaniyatining lingvistik ifodasini aniqlash, ularning umumiy va o'ziga xos jihatlarini belgilash imkonini beradi. Mazkur tadqiqot yo'nalishi qiyosiy tilshunoslik va lingvistik tipologiya nazariyalariga asoslanadi. Qiyosiy tilshunoslik tillardagi o'xshash va farqli xususiyatlarni aniqlashga xizmat qilsa, tipologiya tillarning qarindoshlik darajasidan qat'i nazar, ulardagi umumiy qonuniyatlarni o'rganadi²⁵.

Etiket birliklarini tadqiq etishda nutq madaniyati va muomala odobi bilan bog'liq masalalar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir xalqning tarixiy taraqqiyoti, milliy

²⁴ Формановская Н.И. Речевой этикет и культура общения. – М.: Высшая школа, 1989. – С. 15.

²⁵ Ярцева В.Н. Лингвистический энциклопедический словарь. – М.: Советская энциклопедия, 1990. – С. 517.

qadriyatlari va urf-odatlarining uning tilida, jumladan, etiket vositalarida ham aks etadi. Shu sababli etiket leksikasi nafaqat til hodisasi, balki madaniy hodisa sifatida ham qaraladi²⁶.

Qiyosiy-tipologik tahlil jarayonida etiket birliklarining ma'no xususiyatlari, qo'llanish doirasi va vazifalari o'rganiladi. Bunda bir xil kommunikativ vaziyatlarda ishlatiladigan til birliklarining o'xshash va farqli tomonlari aniqlanadi. Masalan, salomlashish yoki xayrlashish shakllari turli tillarda turlicha ifodalansa-da, ular insonlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga xizmat qiladi.

Etiket leksikasini o'rganishda sotsiolingvistik omillar ham muhim hisoblanadi. Chunki murojaat shakllari va odob birliklarining tanlanishi ko'pincha suhbatdoshlarning yoshi, ijtimoiy mavqei, o'zaro munosabati va muloqot sharoiti bilan bog'liq bo'ladi²⁷.

Etiket leksikasini qiyosiy-tipologik jihatdan o'rganishda lingvistik modellashirish muhim metodologik asoslardan biri hisoblanadi. Lingvistik model tushunchasi muayyan til hodisasining struktur, semantik va funksional xususiyatlarini formalizatsiya qilingan ko'rinishda ifodalashni anglatadi. Etiket birliklari murakkab pragmatik va sotsial yuklamaga ega bo'lganligi sababli ularni modellashirishda bir nechta yondashuvlar integratsiyasi talab etiladi.

Arab va o'zbek tillaridagi etiket leksikasini qiyosiy tahlil qilishda eng avvalo funksional-semantik model asosiy o'rin tutadi. Ushbu modelga ko'ra, etiket birliklari ularning kommunikativ vazifasiga ko'ra tizimlashtiriladi va quyidagi asosiy bloklarga ajratiladi: kontakt o'rnatish, kontaktning davom ettirish, kontaktning yakunlash hamda ijtimoiy-etik baholash birliklari. Bu model etiket leksikasining universal kommunikativ ehtiyojlardan kelib chiqishini ko'rsatadi va turli tillar o'rtasida tipologik taqqoslash imkonini beradi.

Struktur-lingvistik model etiket birliklarining ichki tuzilishini, ya'ni ularning morfologik va sintaktik tashkil topishini tahlil qilishga asoslanadi. Arab tilida etiket formulalarining ko'pchiligi sintaktik jihatdan to'liq predikativ konstruktsiyalar yoki diniy xarakterdagi barqaror iboralar shaklida uchrasa, o'zbek tilida ular ko'proq qisqa, standartlashgan va pragmatik jihatdan ixcham shakllar ko'rinishida namoyon bo'ladi. Mazkur farq lingvistik strukturalarning milliy til tizimi doirasida shakllanganligini ko'rsatadi.

Semantik model etiket birliklarining ma'no qatlamlarini aniqlash va ularni o'zaro qiyoslashga xizmat qiladi. Ushbu modelda etiket leksikasi denotativ ma'no emas, balki ko'proq konnotativ va ijtimoiy baholovchi ma'no qatlamiga ega ekani asosiy xulosa sifatida belgilanadi. Arab tilidagi ko'plab etiket birliklarida diniy-semantik komponent ustunlik qilsa, o'zbek tilida madaniy-urfiiy va qarindoshlik semantikasi kuchliroq ifodalanadi.

²⁶ Маслова В. А. Лингвокультурология. – М.: Академия, 2001. – С. 45.

²⁷ Белл Р.Т. Социоллингвистика: цели, методы и проблемы. – М.: Международные отношения, 1980. – С. 112.

Pragmalingvistik model etiket birliklarining nutqiy akt sifatidagi funksiyasini asosiy tahlil obyekti sifatida belgilaydi. Ushbu modelga ko'ra, etiket leksikasi illokutiv kuchga ega bo'lib, u kommunikativ jarayonni boshlash, tartibga solish va yakunlash vazifalarini bajaradi. Shu bilan birga, etiket birliklari perlokutiv ta'sirga ham ega bo'lib, ular suhbat ishtirokchilari o'rtasida ijobiy ijtimoiy munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi.

Sotsiolingvistik model etiket leksikasini ijtimoiy struktura bilan bog'liq holda o'rganadi. Bu modelda ijtimoiy maqom, yosh, jins va kommunikativ vaziyat asosiy determinatsion omillar sifatida qaraladi. Arab tilida ijtimoiy maqomni ifodalovchi murojaat shakllari ancha murakkab tizimni tashkil etsa, o'zbek tilida qarindoshlik terminlari va hurmat ifodalovchi birliklar dominantlik qiladi.

Lingvokulturologik model esa etiket leksikasini madaniy kod sifatida talqin etadi. Ushbu modelga ko'ra, har bir etiket formulasi muayyan milliy tafakkur, tarixiy tajriba va diniy qadriyatlar tizimining lingvistik ifodasidir. Shu jihatdan arab va o'zbek etiket tizimlari umumiy islomiy madaniy qatlamga ega bo'lsa-da, ular turli etnomadaniy sharoitlarda shakllanganligi sababli o'ziga xos semantik va funksional farqlarga ega.

Etiket leksikasining qiyosiy tahlilida lingvistik modellarni amaliy materiallar bilan tasdiqlash muhim ahamiyatga ega. Arab va o'zbek tillari etiket birliklari ushbu modellarni konkret til faktlari asosida izohlash imkonini beradi.

Funksional-semantik model. Funksional-semantik modelga ko'ra, etiket birliklari kommunikativ vazifasiga qarab tizimlashtiriladi. Masalan:

Aloqa o'rnatish birliklari: arabcha: السلام عليكم (*as-salāmu 'alaykum*) – “Sizga tinchlik bo'lsin”. O'zbekcha: Assalomu alaykum – “Sizga tinchlik tilayman”. Bu birliklar muloqotni boshlash funksiyasini bajaradi va ijtimoiy muhitda kirish signalini ifodalaydi.

Aloqani davom ettirish birliklari: arabcha: كيف حالك? (*Kayfa hāluk?*) – “Qalaysiz?”. O'zbekcha: Ahvollaringiz yaxshimi? Ushbu birliklar suhbatni uzluksiz davom ettirish va ijtimoiy aloqani mustahkamlashga xizmat qiladi.

Aloqani yakunlash birliklari: arabcha: مع السلامة (*Ma'a as-salāma*) – “Omon bo'ling”. O'zbekcha: Xayr, sog' bo'ling. Bu birliklar muloqotni yakunlash funksiyasini bajaradi.

Struktur-lingvistik model. Arab tilida etiket formulalari ko'pincha to'liq sintaktik konstruksiya shaklida bo'ladi: بَارَكَ اللَّهُ فِيكَ (*Bārakallāhu fīk*) – “Alloh sizga baraka bersin!” في أمان الله (*Fī amānillāh*) – “Alloh himoyasida bo'ling!”. O'zbek tilida esa qisqaroq va ixcham shakllar ustun: Rahmat! Alloh rozi bo'lsin! Omon bo'ling.

Bu farq arab tilida diniy-sintaktik to'liqlik, o'zbek tilida esa pragmatik ixchamlik ustunligini ko'rsatadi.

Semantik model va konnotativ qatlam. Etiket birliklarida asosiy ma'no emas, balki konnotativ (qo'shimcha ijtimoiy-diniy) ma'no muhim rol o'ynaydi.

Arab tilida: الحمد لله (*Al-ḥamdu lillāh*) – “Allohgga hamd”. Konnotatsiya: minnatdorchilik + diniy e'tirof. إن شاء الله (*In shā' Allāh*) – “Alloh xohlasa”. Konnotatsiya: kelajak rejasini ilohiy iroda bilan bog'lash.

O'zbek tilida: *Insha Alloh* – reja + umid + diniy ishonch. *Rahmat* – minnatdorchilik + ijtimoiy hurmat

Sotsiolingvistik model va ijtimoiy maqom. Arab tilida ijtimoiy maqomga qarab murojaat shakllari keng qo'llanadi:

يا أستاذ (*Yā ustāz*) – “Ustoz”, يا شيخ (*Yā shayx*) – “Shayx”, سيدي / سيدتي (*Sayyidī / Sayyidatī*) – “Janob / Xonim”.

O'zbek tilida esa ko'proq qarindoshlik va yaqinlik tizimi ustun: aka, opa, amaki, xola, ustoz, domla, Muallim. Masalan:

Arabcha: يا دكتور (*Yā doktor*)

O'zbekcha: Doktor aka / Doktor ustoz

Lingvokulturologik model va madaniy kod

Arab tilida: السلام عليكم – faqat salom emas, balki diniy-ijtimoiy tinchlik kodeksi; في أمان الله – “Alloh himoyasi” madaniy modeli.

O'zbek tilida: *Assalomu alaykum* – diniy + milliy muomala kodi; *Omon bo'ling* – an'anaviy turkiy-islomiy tilak formulasi

Bu birliklar har ikki tilda madaniyat va tilning ajralmas bir butun tizim ekanini ko'rsatadi.

Arab va o'zbek tillaridagi etiket leksikasi misollari shuni ko'rsatadiki, bir tomondan ular universal kommunikativ ehtiyojlarga asoslangan bo'lsa, ikkinchi tomondan har bir tilning milliy-madaniy tizimi bilan chambarchas bog'liqdir. Shu sababli etiket birliklari nafaqat leksik birlik, balki ijtimoiy-madaniy kod sifatida ham talqin qilinadi.

Qiyosiy tahlil natijasida shuni qayd etish mumkinki, arab va o'zbek tillaridagi etiket leksikasini to'liq va adekvat tahlil qilish uchun yuqoridagi lingvistik modellar o'zaro integratsiyada qo'llanilishi zarur. Faqat kompleks yondashuvgina etiket birliklarining universal va milliy xususiyatlarini ilmiy asosda aniqlash imkonini beradi.

Shu tarzda, qiyosiy lingvistik modellashtirish etiket leksikasini tizimli, funksional va madaniy jihatdan bir butun hodisa sifatida talqin qilishga xizmat qiladi hamda arab va o'zbek tillari materiallari asosida tipologik umumlashmalar chiqarish imkonini beradi.

Demak, etiket leksikasining qiyosiy-tipologik tadqiqi turli tillardagi odob va muomala vositalarining umumiy hamda milliy xususiyatlarini aniqlashga xizmat qiladi. Bu esa tillararo o'xshashlik va tafovutlarni ilmiy asosda yoritish imkonini beradi.